

ALALIYA – NUTQ NUQSONINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Kenjayeva Nilufarxon Muxiddinovna

Uchko’prik tumani 4-DMMT direktori

Ilmiy rahbar: Dehqonova Manzuraxon Xaydaraliyevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alaliyaning kelib chiqish sababalari, o’rganilishi, erta yoshda aniqlash, mayda motorika bilan bog’liq jarayonlar va rivojlantirish masalalari keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Alaliya, nutq, motorika, syujetli-rolli o’yinlar, raxit, pnevmoniya, endokrin kasalliklar.*

Yosh avlodni har tomonlama rivojlanishida kelajakda komil inson bo’lib yetishida nutqning ahamiyati muhimdir. Nutq oliy psixik jarayon bo’lib kishilar aro aloqa quroli, barcha sohalarida qudratli muomala vositasidir.

Bola psixik va somatik jihatdan sog’lom, barkamol bo’lishiga o’z me’yorida aqliy qobiliyatga ega bo’lib, yetarli darajada psixik faollikka ega bo’lishga ehtiyoj sezishi uchun to’g’ri nutq sharoitida bo’lishiga ham bog’liq.

Nutq — insonning eng katta yutug’i bo’lib, u insonga turli tovushlar, so’zlar va boshqa til elementlari yordamida muloqot qilish imkonini beradi. Nutq rivojlanishining eng faol davri maktabgacha va maktab yoshida kechadi. Bolalar tomonidan maktabgacha yoshda nutqning asosiy poydevori shakllanar ekan, demak bevosita bolalar nutqini rivojlantirishda mazkur holatni inobatga olgan holda asosiy diqqat-e’tibor aynan shu yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va korreksiya qilishga qaratilish lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim va tarbiya ishining keng dasturini amalga oshiradi va bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi. Maktabgacha tarbiya tashkiloti xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo’yiladigan ta’lim-tarbiya talablarini yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta’lim olishga tayyorlashlari lozim. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ta’lim olishga tayyorlash jarayoni ularning lug’at boyligini oshirish, nutqning grammatik tuzilishini korrektsiyalash, tovushlarni tahlil qilish nutq apparati motorikasini rivojlantirish, psixik jarayonlarni faollashtirishni ham nazarda tutadi. Hozirgi kunda bolani maktabga tayyorlash masalasi hammani - ota-onalar, pedagoglar va jamoatchilikni qiziqtirmoqda. Bu o’z navbatida bolalarni maktabga alohida tayyorlashni talab etadi. Alaliya - bosh miya qobig’idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organik shikastlanishi natijasida nutqning yo’q bo’lishi yoki rivojlanmay qolishi. Ma’nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo’ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik (eskirgan). Alaliya – bolaning ona qornida yoki dastlabki rivojlanish bosqichida nutq shakllanishiga qadar bosh miya qobig’i nutq doirasining organik jarohatlanishi oqibatida uzluksiz rivojlanmay qolishdir.

Alaliyani o’rganishda uzoq vaqt mobaynida uning kelib chiqish sabablarini turlicha ko’rsatganlar. R. Koyen, A. Guttsmon, E. Freshels, M. Zeyeman va boshqalarning fikricha,

alaliya bolaning ona qornida yoki rivojlanish bosqichida shamollash yoki alimentar trofik moddalar almashinuvining patologik jarayoni natijasida kelib chiqadi.

Erta yoshdagi bolalarda alaliya kelib chiqishiga sabablar: bolaning birinchi yoshida o‘tkazgan kasalliklari, ensefalit, meningit, bosh miya yopiq jarohatlari, somatik kasalliklar, markaziy nerv tizimining gipotrofiyasi (kichrayishi). Ba’zi bir tekshiruvlar alaliya kalib chiqishiga nasliy va genetik omillar moyillikni oshirishini aniqlagan. Tez-tez takrorlanuvchi surunkali bolalarda uchraydigan kasalliklar O‘RVI, gripp, pnevmoniya, endokrin kasalliklar, raxit va shu kabilar, umumiy narkoz ostida jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilganligi, salbiy ijtimoiy muhit ham alaliya kelib chiqish xavfini oshiradi.

Motorika bilan bog‘liq alaliya miya bosh miya mag‘iz qismining erta davrlardagi organik shikastlanishlari natijasida gapirish analizatorida buzilishlar paydo bo‘lishidan kelib chiqadi. Bu holatda bola o‘zgalar so‘zini tushunadi, lekin o‘zi gapira olmaydi. Zararlangan sohaga qarab: afferent motorika va efferent motorika bilan bog‘liq alaliyalar farqlanadi. Sensorika bilan bog‘liq alaliyada po‘stloq osti (mag‘iz) gapirish-eshitish markazida (analizatorida) zararlanish bo‘ladi (Vernika markazi, chakka sohasining orqa uchdan bir qismida). Bu holatda markaziy eshituv va gapirish hujayralari zararlanib, bola tovushlarni analiz va sintez qila olmaydi. Bolaning eshitish qobiliyati saqlangan bo‘lsada, so‘zlarni tushunmaydi.

Motor alaliya nutqiy va nutqiy bo‘lmagan belgilar majmuini tashkil etuvchi murakkab sindrom hisoblanadi. Motor alaliyada nutqiy nuqson tarkibida nutqiy buzilishlar yetakchi o‘rin egallaydi.

XULOSA

Mamlakatimizda fan-texnika yuksak sur‘at bilan rivojlanib borayotgan bir paytda yosh avlod zimmasidagi mas’uliyat ham ortmoqda. Ularga berilishi lozim bo‘lgan bilimning hajmi yil sayin oshmoqda. Bolalarni bog‘chadayoq maktabga tayyorlash maktabda esa ularni o‘qitishning yangi shakllari amalga oshirilmoqda. Modomiki, harakat va so‘z insonning o‘zligini namoyish etuvchi asosiy vosita ekan, buning uchun bolaning jismoniy va nutqiy tarbiyasiga ilk davrdan boshlab e’tiborni qaratmoq lozim.

Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar pedagogik jixatdan turli guruxlarga mansub bo‘lib, bu guruxlar bir-biridan nuqson darajasiga va tuzatish ishlarining samaradorligiga qarab farqlanadi. Shu sababli alaliya va uning barcha turlarida nutqni shakllantirish metodlarini o‘rganish dolzarb masala sanaladi. Alaliya nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik korreksion ishlar davomida logoritmik kompleks mashq va vositalarni har bir mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi bolalar nutqini rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

- bunday ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ishlarni tovush talaffuzi nuqsonlarini bartaraf etish, fonematik idrokini rivojlantirga qaratilgan ishlar bilan birganlikda olib borilgandagina yaxshi natijalarga erishiladi, logopedik ishning samaradorligi oshadi; - agar bolalarni bunga maxsus o‘rgantilmasa, ularda yozma nutq kamchiliklari ham yuzaga kelishi ehtimolidan holi emas. Shuning uchun ham maxsus muassasalarda fonematik idrokni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Logopedik o‘yin mashg‘ulotlarida alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha korreksion - pedagogik ishini bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan shakllarda (o‘yin, o‘quv-o‘yin) olib borilish

Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida rivojlantiruvchi syujetli –rolli, didaktik va xarakatli o‘yinlardan keng foydalanish

Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari jarayonida bolalarni ruhiy va jismoniy rivojlanish xususiyatlarini xisobga olish

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nutq kamchiliklarini bartaraf etishda qulay va samarali usullardan foydalanishning ahamiyati katta ekan. Biz bo‘lg‘usi defektolog – logopedlar sifatida hamda barkamol avlod tarbiyachisi sifatida buni yaxshi bilmog‘imiz va tarbiyaviy ish jarayonini va o‘qitishni shu asosda tashkil etishni o‘rganmog‘imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining « Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuni № 595, 16.12.2019-y
2. O‘zbekiston Respublikasi « Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni № 637, 23.09.2020-y
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi « Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 3-iyuldagi “ « O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”
5. Ayupova M.Yu. “ Logopediya” Toshkent. 2007.
6. Shomaxmudova R. Sh, Nurmuxammedova L. S, To‘laganova D.R "Logopediya. Kompleks mashqlar" Toshkent: “Lesson press” nashriyoti, 2015.
7. Shomaxmudova R. Sh, To‘laganova D.R. “ Ilk yoshdagi falaj-jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion logopedik ish texnologiyasi” Toshkent: “ Lesson press” nashriyoti, 2018.
8. Shomaxmudova R. Sh. “Logopediya barmoqlar mashqi va nutq o‘stirish” Toshkent: “Lesson press” nashriyoti, 2018.
9. Shomaxmudova R. Sh. “Bolalar bilan korreksion logopedik ishlarni olib borishda didaktik va xarakatli o‘yinlar” Toshkent. 2017.
10. Nurkeldiyeva D.A, Ayupova M.Yu, Axmedova Z.M. “ Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar” Toshkent. “ Yangi asr avlodi” nashriyoti . 2007
11. Mo‘minov L., Ayupova M. Logopediya. – T., 1993.
12. Internet ma’lumotlari asosida.